

SANOAT KORXONALARI DEMOGRAFIYASINING IQTISODIY SAMARADORLIKGA TA'SIRINING EKONOMETRIK MODELLARI

Xayitboev Abror Quvondiqovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi,
E-mail: manzili-dkorleon26@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada sanoat korxonalarining demografiyasining umumiy korxonalar faoliyatiga ta'siri tadqiq qilingan. Shuningdek, ishchi kuchi va sanoat korxonolari demografiyasi asosida baholangan sanoat samaradorligining omillari ekonometrik usullar orqali tahlil qilingan. Natijalarga ko'ra sanoat samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sanoat korxonolari, sanoat samaradorligi, sanoat tarmog'ining o'sishi, korrelyatsiya, regressiya, mintaqa.

Аннотация

В статье рассматривается влияние демографических показателей промышленных предприятий на общую деятельность предприятия. Также эконометрическими методами проанализированы факторы эффективности производства, оцениваемые по численности рабочей силы и демографическим показателям промышленных предприятий. На основе полученных результатов разработаны предложения по повышению эффективности промышленности.

Ключевые слова: промышленные предприятия, эффективность промышленности, рост промышленности, корреляция, регрессия, регион.

Abstract

This article examines the impact of demographic indicators of industrial enterprises on their overall performance. Econometric methods are also used to analyze production efficiency factors, measured by the workforce size and demographic indicators of industrial enterprises. Based on the findings, proposals for improving industrial efficiency are developed.

Keywords: industrial enterprises, industrial efficiency, industrial growth, correlatio, regression, region.

KIRISH

Sanoat tarmog'ini rivojlantirish, ular faoliyatida ishchi kuchidan samarali foydalanish jarayoni mintaqa iqtisodiyotidagi muhim masala sanaladi. Bu o'rinda ishchi kuchidan samarali foydalanishning miqdor va sifat ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratish zarur. Bunda sifat jihatlari ishchi kuchining bevosita malaka va ko'nikmalari bilan bog'lansa, miqdor jihatlari bandlikning o'zgarishini o'z ichiga oladi. Demak, ishchi kuchidan sanoatda samarali foydalanishning miqdor mezonlarini tadqiq qilganimizda yangi ish o'rinlarining kengayishiga e'tibor qaratiladi. Bu esa yangi korxonalar faoliyatini tashkil qilish, ularning faollik darajasini oshirish orqali hal etiladi. Bir so'z bilan ifodalaganimizda, ushbu jarayon korxonalar demografiyasining o'zgarishi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat tarmog‘i samaradorligiga korxonalar demografiyasi ta‘sirining ekonometrik tahlili yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, tadqiqotlarda ko‘p chiziqli regressiya modeli va uning parametrlarining statistik ahamiyati sinovdan o‘tkazilib, o‘rganilayotgan ko‘rsatkichni prognoz qilishda foydalanish uchun modelning yaroqliligi aniqlangan [1]. Yana bir qator tadqiqotlarda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini boshqarishni takomillashtirish muhim masala sifatida bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanishning barcha bosqichlarida uni hal qilish masalasi ilgari suriladi. Ya‘ni, bu borada ushbu maqsadga muvaffaqiyatli erishish ko‘p jihatdan iqtisodiy axborotni qayta ishlash usullari va texnik vositalarini takomillashtirishga bog‘liqligi asoslangan [2]. Boshqa tadqiqotlarning yo‘nalishi esa sanoat korxonalarini xavfsizligini ta‘minlashni taqozo qiladi. Ya‘ni, unga asosan sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash ham bir qancha o‘ziga xos nazariy va amaliy muammolarni hal qilishni taqozo qiladi [3]. Undan tashqari, boshqa tadqiqotlar bevosita sanoat sohasining korxonalar faoliyati taraqqiyotini ta‘minlashga qaratilgan. Bu borada mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida sanoat tarmog‘ining roli, sanoat tarmog‘i iqtisodiy salohiyati va samaradorligining mohiyati, tuzilishi hamda sanoat tarmog‘i iqtisodiy samaradorligiga ta‘sir qiluvchi omillar yoritib berilgan [4].

METODOLOGIYA

Metodologik yondashuvda demografik ko‘rsatkichlarning sanoat tarmog‘i samaradorligiga ta‘sirini empirik aniqlash uchun kvantitativ tadqiqot dizayniga asoslangan ekonometrik tahlil usullari tanlandi. Model qurilishida chiziqli va logaritmik regressiya tenglamalari qo‘llanilib, bog‘liqliklar kuchi korrelyatsiya koeffitsiyentlari orqali baholandi. O‘zgaruvchilarning statistik ahamiyati t-test va F-statistika yordamida sinovdan o‘tkazildi. Determinatsiya koeffitsiyentlari esa modelning tushuntirish darajasini baholash mezon sifatida tanlandi.

Tahlil obyekti sifatida Xorazm viloyatida ro‘yxatga olingan, faoliyat yuritayotgan, yangi tashkil etilgan va tugatilgan sanoat hamda boshqa turdagi korxonalar soni asosiy ko‘rsatkich sifatida qaraldi. Ushbu statistik ma‘lumotlar asosida korxonalar sonidagi o‘zgarishlar bilan mehnat samaradorligi, yalpi hududiy mahsulot o‘sishi va aholi daromadlari o‘rtasidagi sababiy bog‘liqliklar matematik modellashtirildi. Har bir modelda eksogen va endogen o‘zgaruvchilar o‘zaro ta‘sir doirasida aniqlik bilan ajratildi.

Ma‘lumotlar real iqtisodiy holatni ifodalovchi rasmiy statistik bazalardan olinib, vaqt oralig‘idagi dinamik o‘zgarishlar hisobga olindi. Modellarning ishonchliligi va prognozlash imkoniyati dispersion tahlil, qoldiq xatoliklar tahlili va parametrlarning barqarorlik shartlari orqali test qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dastlab Xorazm viloyatida ro‘yxatga olingan jami korxonalar soni va sanoat korxonalar soni o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsientini o‘rganamiz. Amalga oshirilgan hisob-kitoblarimiz natijasida korrelyatsiya koeffitsienti 0,9183 ga teng bo‘lib, o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi munosabatning chiziqli tarzda shakllanganini

anglatadi. Demak, agar ushbu ikki o‘zgaruvchi o‘rtasida regressiya modeli qurilsa, sanoat korxonalar soni jami korxonalar sonining sezilarli darajada yaxshi tushuntiruvchi manbasi hisoblanadi. Bunday yuqori korrelyatsiya odatda statistik ahamiyatli hisoblanadi ($p\text{-value} < 0,01$). Ya’ni, variatsiyaning yuqoriligi ($R^2 \approx 0,84$) mintaqadagi jami korxonalar ro‘yxatga olish darajasi asosan sanoat korxonalar soniga bog‘liqligini aks ettirmoqda (1-jadval).

1-jadval.

Xorazm viloyatida ro‘yxatga olingan jami va sanoat tarmog‘idagi korxonalar soni o‘rtasidagi juft korrelyatsiya bog‘liqligi [5]

Ko‘rsatkichlar nomi	Jami korxonalar soni	Sanoat korxonalar soni
Jami korxonalar soni	1	
Sanoat korxonalar soni	0,918	1

Shu bois, ushbu o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi regressiya tahlilini amalga oshiramiz. Xorazm viloyatida ro‘yxatga olingan jami korxonalar soni (Y) bilan sanoat korxonalar soni (X) o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash maqsadida oddiy chiziqli regressiya modelidan foydalanamiz. Jumladan, berilgan regressiya natijalari asosida quyidagi modelni ishlab chiqdik:

$$\log(Y) = 19.0039 + 0.8210 \cdot \log(X) \quad (1)$$

Bunda: Y – Xorazm viloyatidagi jami (ro‘yxatga olingan) korxonalar soni; X – sanoat korxonalar soni.

Mazkur model natijalarini ifodalashicha, sanoat korxonalar sonining bir birlikka oshishi mintaqadagi jami korxonalar sonining 0,82 birlikka o‘shishini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, modelning ahamiyatlilik darajalari ham ijobiy bo‘lib, determinatsiya koeffitsienti ($R^2 = 0,843$), F-statistika – 48,47 hamda $p\text{-value} \approx 0$ qiymatlari umumiy holda statistik ahamiyatga ega. Tahlil natijalariga ko‘ra, sanoat korxonalar soni bilan jami korxonalar soni o‘rtasida juda yuqori darajadagi ijobiy chiziqli bog‘liqlik mavjud. Ya’ni, jami korxonalar sonining katta qismi sanoat tarmog‘idagi faoliyat bilan belgilanishini anglatmoqda.

Shuningdek, yuqoridagi kabi korrelyatsion-regressiya tahlilini mintaqada faoliyat yuritayotgan korxonalar sonining o‘zgarishi bo‘yicha ham amalga oshiramiz. Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan jami korxonalar soni bilan sanoat tarmog‘idagi korxonalar soni o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik koeffitsienti, ya’ni korrelyatsiya ko‘rsatkichi orqali baholandi. Natijada, ushbu ikki ko‘rsatkich o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti yuqori ($r = 0,959$) bog‘liqlikni ifodalagan (2-jadval).

2-jadval.

Xorazm viloyatida faol jami va sanoat tarmog‘idagi korxonalar soni o‘rtasidagi juft korrelyatsiya bog‘liqligi [6]

Ko‘rsatkichlar nomi	Jami korxonalar soni	Sanoat korxonalar soni
Jami korxonalar soni	1	
Sanoat korxonalar soni	0,959	1

Demak, sanoat korxonalari umumiy korxonalar tarkibini belgilab beruvchi muhim tarmoq hisoblanar ekan. Bu o‘z navbatida mintaqada sanoat sohasining faolligi hududdagi kichik biznes, xizmat ko‘rsatish va boshqa tarmoqlarning ham rivojlanishiga olib keladi. Shu bois, faol korxonalar sonini ko‘paytirish uchun sanoat tarmog‘ida investitsiyalarni kengaytirish, infratuzilmani rivojlantirish va sanoat zonalarini takomillashtirish zarur. Berilgan natijalarga asosanib, jami faol korxonalar soni va sanoat tarmog‘i korxonalari soni o‘rtasida regressiya tahlilini amalga oshiramiz. Natijada quyidagi chiziqli regressiya tenglamasi orqali hisoblandi:

$$\log(Y)=25,47+0,763\cdot\log(X) \quad (2)$$

Bunda: Y – Xorazm viloyatidagi faol jami korxonalar soni; X – sanoat tarmog‘idagi faol korxonalar soni.

Natijada, Xorazm viloyatida sanoat tarmog‘idagi faol korxonalarining 1 foizga o‘zgarishi umumiy viloyatdagi korxonalar faolligining 0,76 foizga o‘zgarishiga olib kelmoqda. Mazkur modelning sifat jihatlari baholanganda yuqori ijobiy koeffitsientlar aniqlandi. Jumladan, determinatsiya koeffitsienti yuqori ijobiy ko‘rsatkichga ega bo‘ldi ($R=0,959$). Shuningdek, dispersion tahlil natijalariga ko‘ra modelning ishonchliligi yuqori ($F=104,096$, P -qiymati $< 0,001$) bo‘lib, statistik jihatdan ahamiyatli hisoblanadi.

Shuningdek, koeffitsientlarning statistik ahamiyati quyidagi qiymatlarni ifodalamoqda: Y-konstanta (25,47): $t=3,18$, $P=0,011$; X (0,763): $t=10,20$, $P < 0,001$. Demak, Xorazm viloyati va uning hududlarida sanoat tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va uni rivojlantirish orqali hududdagi umumiy tadbirkorlik faolligini oshirish imkoniga ega bo‘linadi. Fikrimizcha, hududlarning qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashuv darajasining yuqoriligini hisobga olsak, dastlabki bosqichda qayta ishlash sanoatini kengaytirish zarur.

Yuqorida Xorazm viloyatidagi faol korxonalarining holatini ekonometrik jihatdan tadqiq qilgan bo‘lsak, uning salbiy jihatlari sifatida nafaol korxonalar ham mavjudligini ko‘rish mumkin. Ya‘ni, ijobiy ko‘rsatkichni oshirish, ular sonini kengaytirish iqtisodiyotda ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirishga hamda mehnat unumdorligining o‘shishiga olib keladi. Biroq salbiy tendensiyani kamaytirish zarur. Shu bois, viloyatdagi korxonalarining umumiy soni bilan sanoat tarmog‘idagi nafaol korxonalar soni o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ko‘rib o‘tildi.

Amalga oshirilgan hisob-kitoblar natijasida Xorazm viloyatidagi jami nafaol korxonalar va sanoat korxonalari o‘rtasida yuqori korrelyatsiya mavjudligi ($r=0,944$) aniqlandi. Bu bog‘liqlik statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi baholandi ($P < 0,01$). Demak, korrelyatsion tahlil natijalariga ko‘ra, sanoat tarmog‘idagi muammolar va ulardagi mavjud korxonalarining salbiy tendensiyalari viloyatdagi nafaol korxonalarining shakllanishiga asosiy omil bo‘lib qolmoqda.

Yuqoridagi korrelyatsion tahlil natijalariga asosanib, Xorazm viloyatidagi jami nafaol va sanoat korxonalari o‘rtasidagi regressiya bog‘liqligi hisob-kitob qilindi va natijada quyidagi model ishlab chiqilgan:

$$\log(Y)=-12,30+1,031\cdot\log(X) \quad (3)$$

Bunda: Y – Xorazm viloyatida jami nafaol korxonalar soni; X – sanoat tarmog‘idagi nafaol korxonalar soni.

Mazkur modelning statistik ahamiyatliligi determinatsiya koeffitsienti, Fisher mezoni, aproksimatsiya xatoligi kabi mezonlar asosida baholandi va regressiya tenglamasining ahamiyatli ekanligi aniqlandi. Ya’ni, determinatsiya koeffitsienti $R^2=0,891$; Fisher mezoni va uning statistik ahamiyati $F=73,59$ va $P < 0,001$; X-ekzogen omilning ahamiyatliligi va ishonchliligi $t=8,58$, $P < 0,001$. Demak, sanoat sohasidagi nafaol korxonalarining 1 foizga o‘zgarishi jami viloyatdagi nafaol korxonalarni 1,03 foizga o‘zgarishiga olib kelmoqda. Xorazm viloyatida sanoat tarmog‘i va umumiy nafaol korxonalar o‘rtasida juda yuqori ijobiy bog‘liqlik mavjud bo‘lib, bu bog‘liqlik sanoat tarmog‘idagi muammolarni bartaraf etish hisobiga tadbirkorlik muhitini rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

Xorazm viloyatida yangi tashkil etilgan jami korxonalar soni bilan sanoat tarmog‘ida yangidan ochilgan korxonalar soni o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi. Natijada ular o‘rtasida yuqori va barqaror bog‘liqlik aniqlandi. Jumladan, Xorazm viloyatida yangi tashkil etilgan jami korxonalar va sanoat tarmog‘ida tashkil etilgan yangi korxonalar soni o‘rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjud ($r=0,824$). Demak, sanoat sohasidagi tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish natijasida nafaqat ishlab chiqarish ko‘lamini, balki umumiy korxonalar demografiyasining ham ijobiy o‘zgarishini ta’minlash mumkin. Shu bois, sanoat sohasidagi subyektlarni kengaytirish, yangi tashkil etish yo‘nalishida hududlar uchun imtiyozlarni kengaytirish, kichik sanoat hududlarini tashkil qilish va ularni rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Xorazm viloyatida yangi tashkil etilgan korxonalarining jami soni bilan sanoat tarmog‘idagi yangi korxonalar soni o‘rtasidagi bog‘liqlik juft korrelyatsiya natijalari asosida regressiya tahlil qilindi. Regressiya tahlili natijasidagi model quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\log(Y)=28,13+0,758 \cdot \log(X) \quad (4)$$

Bunda: Y – Xorazm viloyatida jami yangi tashkil etilgan korxonalar soni; X – sanoat tarmog‘ida yangi tashkil etilgan korxonalar soni.

Shuningdek, modelning statistik va ekonometrik tekshiruv natijalari ijobiy bo‘ldi. Ya’ni, dispersion tahlil, Fisher mezoni, aproksimatsiya xatoligi va ekzogen o‘zgaruvchining xatolik darajasi talabga javob beradi. Jumladan: $F=19,02$ va $P=0,0018$ – model statistik jihatdan ahamiyatli; X koeffitsienti ($0,758$, $t=4,36$, $P=0,0018$) – statistik va iqtisodiy jihatdan ishonchli. Mazkur regressiya tahlili natijasiga ko‘ra, yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarining 1 foizga o‘zgarishi hisobiga viloyatdagi yangi tashkil etilgan korxonalarining umumiy soni 0,76 foizga oshadi.

Yuqoridagilar qatorida korxonalar demografiyasiga oid salbiy ko‘rsatkichlardan biri tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tugatishi hisoblanadi. Shu bois, Xorazm viloyatida tugatilgan jami korxonalar soni bilan sanoat tarmog‘ida tugatilgan korxonalar soni o‘rtasidagi bog‘liqlik bo‘yicha korrelyatsion-regressiya tahlili amalga oshirildi. Natijada Xorazm viloyatida tugatilgan jami korxonalar va tugatilgan sanoat korxonalar soni o‘rtasida yuqori ijobiy korrelyatsiya mavjudligi aniqlandi ($r=0,932$). Bu bog‘liqlik sanoat tarmog‘idagi salbiy tendensiyalar ham xuddi ijobiy o‘zgarishlar

kabi umumiy biznes muhitiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Ushbu tahlil natijalariga ko'ra regressiya tahlili ham amalga oshirildi. Ya'ni, Xorazm viloyatida faoliyati tugatilgan korxonalarining jami soni bilan sanoat tarmog'ida faoliyati to'xtatilgan korxonalar soni o'rtasidagi regressiya tahlili natijasida quyidagi model olindi:

$$\log(Y)=10,94+0,903\cdot\log(X) \quad (5)$$

Bunda: Y – Xorazm viloyatida jami tugatilgan korxonalar soni; X – sanoat tarmog'ida tugatilgan korxonalar soni.

Modelning statistik ahamiyati va ishonchliligi tekshirilganda quyidagi ko'rsatkichlar olindi va ular ijobiy hisoblanadi: $F=59,82$ va $P < 0,001$ – model statistik jihatdan ahamiyatli; X koeffitsienti (0,903, $t=7,73$, $P < 0,001$) – sanoat tarmog'ida tugatilgan korxonalar sonining jami tugatilgan korxonalariga sezilarli va ishonchli ta'siri mavjud. Demak, Xorazm viloyatida tugatilgan sanoat korxonalarining 1 foizga o'zgarishi jami korxonalarining 0,903 foizga o'zgarishini ta'minlamoqda.

Yuqorida Xorazm viloyatida mavjud jami korxonalar hamda sanoat sohasidagi korxonalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar ko'rib chiqildi. Ushbu natijalar sanoatning mintaqa iqtisodiyotiga miqdoriy bog'liqligini tushuntirish imkonini beradi. Shunga qaramay, sohaning sifati va samaradorligining mintaqa iqtisodiyotiga ta'sirini baholashda mehnat samaradorligini ham tadqiq qilish zarur.

Xorazm viloyatidagi korxonalar faoliyatining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri bo'yicha tahliliy ma'lumotlar asosida umumiy mehnat samaradorligi va sanoat tarmog'idagi mehnat samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik ham o'rganildi. Dastlabki statistik va ekonometrik tadqiqot natijalariga ko'ra, umumiy mehnat samaradorligi hamda sanoatdagi mehnat samaradorligi o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti yuqori ijobiy bog'liqlikka ega ($r=0,880$). Demak, Xorazm viloyatida umumiy samaradorlikni oshirish uchun sanoat tarmog'idagi mehnat samaradorligini oshirishga e'tibor qaratish zarur.

Olingan korrelyatsion tahlil natijalariga muvofiq Xorazm viloyatidagi umumiy mehnat samaradorligi va sanoat tarmog'idagi mehnat samaradorligi o'rtasida regressiya modeli ishlab chiqildi:

$$\log(Y)=29,82+0,669\cdot\log(X) \quad (6)$$

Bunda: Y – umumiy mehnat samaradorligi (mln so'm); X – sanoat tarmog'idagi mehnat samaradorligi (mln so'm).

Regressiyaning statistik ahamiyati bo'yicha hisob-kitoblarga ko'ra R-kvadrat 0,774 ga teng bo'lib, sanoat tarmog'idagi mehnat samaradorligi umumiy mehnat samaradorligining 77,4 foiz o'zgarishini ta'minlamoqda. Fisher mezoni va umumiy modelning ishonchliligi ($F=30,88$, $P=0,000353$) modelning ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi, ya'ni P-qiymati 0,05 dan kichik. Shu bilan birga, t-statistika ko'rsatkichlari X-ekzogen omil uchun ijobiy va ishonchli ($t=5,56$, $P < 0,001$). Demak, Xorazm viloyatida sanoat tarmog'i mehnat samaradorligining 1 foizga oshishi umumiy mehnat samaradorligini 0,669 foizga oshirish imkonini beradi.

Yuqoridagi samaradorlik bilan bog‘liq tadqiqotlar viloyat va sanoatda yaratilgan mahsulotlarni ish bilan bandlar hisobiga aniqlash orqali iqtisodiy-statistik jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, korxonalar demografiyasining viloyat rivojlanishiga ta’siri yuqori korrelyatsiya va regressiya koeffitsientlari orqali aniqlandi. Bu esa korxonalar hisobiga yaratilgan mahsulotlar asosidagi unumdorlikni ham ekonometrik jihatdan tadqiq etishni talab etadi. Shu bois, Xorazm viloyatida sanoat tarmog‘i va umumiy korxonalar hisobiga aniqlangan mehnat samaradorligi hamda ularning iqtisodiy omillar bilan bog‘liqligi tahlil qilindi.

Jumladan, sanoat tarmog‘i samaradorligiga ta’sir etuvchi iqtisodiy omillar (YaHM o‘sishi va aholi jon boshiga daromadlar o‘sishi) bo‘yicha o‘tkazilgan regressiya tadqiqotlari natijasida quyidagi chiziqli model hosil qilindi:

$$\log(Y) = -146,895 + 2,271 \cdot \log(X_1) + 0,095 \cdot \log(X_2) \quad (7)$$

Bunda: Y – sanoat samaradorligi o‘sish sur‘ati (korxonalar soniga nisbatan hisoblangan samaradorlik); X_1 – YaHM o‘sishi; X_2 – aholi jon boshiga umumiy daromadlar o‘sishi.

Modelning ishonchliligi bo‘yicha olib borilgan tahlil natijasida uning ijobiy jihatlari aniqlandi. Jumladan, modelning statistik ahamiyati ($F=3,25$, $P=0,074$) bo‘lib, tenglamadan o‘zgarishlarga baho berishda foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi. Model natijalariga ko‘ra, viloyatda YaHMning 1 foizga o‘sishi sanoatdagi faol korxonalar hisobiga aniqlangan samaradorlikni 2,271 foizga ($P=0,039$), aholi daromadlarining 1 foizga o‘sishi esa sanoat samaradorligini 0,095 foizga oshirmoqda. Demak, Xorazm viloyatida sanoat tarmog‘ining korxonalar hisobiga aniqlangan samaradorlik mezonini oshirish uchun iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, investitsiyalarni kengaytirish hamda aholi daromadlarining o‘sishini ta‘minlash zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorazm viloyatida sanoat tarmog‘ining rivojlanishi, shuningdek, qishloq xo‘jaligi va aholi daromadlarining o‘sishi bilan ham bog‘liqdir. Shu sababli, sanoatda mehnat samaradorligi o‘sishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillarni tahlil qilish iqtisodiy siyosat uchun muhim ahamiyatga ega. Bu esa mintaqa iqtisodiy siyosatida qishloq xo‘jaligi va qayta ishlash sanoatini integratsiya qilish, aholi daromadlari va iste‘molni oshirish hamda investitsiyalarni texnologik modernizatsiya yo‘nalishlariga yo‘naltiriladigan mablag‘larni ko‘paytirish hisobiga sanoatda korxonalar demografiyasi asosida aniqlangan samaradorlikning yuqori o‘sishiga erishish mumkinligini e‘tiborga olishni talab etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Дубровский В.Ж., Иванова Е.М., Чупракова Н.В. Экономическая оценка факторов роста производительности труда на градообразующих предприятиях ОПК. Влияние на моногорода // Экономика региона, 2020, Т.16, вып.3. - С. 831-844. <https://doi.org/10.17059/ekon.reg.2020-3-12>.

2. Жминько А.Е., Соседский С.О., Шепотенко Д.С. Эконометрический анализ производства продукции на сельских территориях. // Вестник Академии знаний, №1 (66), 2025. - с. 215.

3. Ibragimova S.A. Sanoat korxonalari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash: muammo va yechimlar. // «Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti: muammo va yechimlar» mavzusidagi III-xalqaro ilmiyamaliy konferensiya materiallari. Maqolalar va tezislar to'plami. - T.: Ma'rifat, 2023. - 46 b.

4. Kasimov A.A. Sanoat tarmog'i samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar va uni yanada oshirish yo'llari. // Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali, 2024, 4(01). - 252-260 b.

5. Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:	Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri:	Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri:	Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih:	Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar:	Sadikov Shoxrux Shuxratovich Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, dekabr, 12-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**